

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

OAV №0237

ISSN 2181-4430



“

Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat
iqtisodiyotining kelajagi yo'q.

”

Shavkat Mirziyoyev

RITM RAQAMLI
IQTISODIYOT
TADQIQOTLARI
MARKAZI

8-SON

www.infocom.uz

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi davriy nashri bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sohasida yangiliklar, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt sohalarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonlarini yoritadi.

Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

Jurnal har chorakda bir marta elektron shaklda nashr qilinadi va www.infocom.uz saytiga yuklanadi.

“Digital economy” scientific-electronic journal

Scientific and electronic journal “Digital economy” is a periodical publication of the “Digital Economy Research Center” government entity under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Scientific and electronic journal illuminates the processes of increasing the efficiency of applied research and increasing economic efficiency through the introduction of digital technologies.

The journal is included in the list of recommended national scientific publications for publication of the main scientific results of dissertations on economic sciences of the Supreme attestation commission.

The journal publishes quarterly in electronic form and uploads to the website www.infocom.uz.

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

MUASSIS

“Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi

TAHRIR KENGASHI RAISI

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

BOSH MUHARRIR

Axmedov Bexruz Ibroxim o‘g‘li

MAS‘UL KOTIB

Abdullayev Ulug‘bek Maxmudovich

KOMPUTER OPERATORI VA DIZAYNER

Yusupov Akim Konstantinovich

TAHRIRIYAT A‘ZOLARI

Abdurahmonov Q.X.	- i.f.d., akademik	Ismoilova G.F.	- i.f.n., dotsent
Teshabayev T.Z.	- i.f.d., professor	Iminova N.A.	- i.f.n., dotsent
Raximov B.N.	- t.f.d., professor	Utanov B.Q.	- PhD, professor
Kenjaboev A.T.	- i.f.d., professor	Xolmuxammedov M.M.	- i.f.d., dotsent
Begalov B.A.	- i.f.d., professor	Ismailov X.M.	- PhD, dotsent
Jo‘rayev A.S.	- i.f.d., professor	Mamadiyarov Z.T.	- i.f.d., dotsent
Davronbekov D.A.	- t.f.d., professor	Po‘latov Sh.U.	- t.f.n., dotsent
Pisetskiy Y.V.	- t.f.d., professor	Sultonova M.O.	- PhD, dotsent
Khallel Ahmad	- PhD, professor	Bazarov F.O.	- i.f.d., dotsent
Qobulov X.A.	- i.f.n., professor	Kasimov A.A.	- PhD, dotsent
Xolmamatov F.K.	- i.f.d., professor		
Xakimov Z.T.	- i.f.d., dotsent		
Xujamatov X.E.	- t.f.d., dotsent		
Isroilov J.D.	- PhD, dotsent		
Muxitdinov X.A.	- i.f.n., dotsent		

O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MUHOFAZASI BO‘YICHA YETAKCHI XODIMLAR VA MUTAXASSISLARNING BILIMLARI SINOVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O‘TKAZISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Muradov Sirojiddin Husan o‘g‘li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti stajyor-o‘qituvchisi

sirojiddinmuradov0@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda O‘zbekistonda ishlab chiqarish va sanoatni raqamlashtirish, mehnatni muhofazasi sohasida rahbar hodimlar, mutahasislarni o‘qitishning raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirishning huquqiy asoslari tahlil etilgan. Raqamli iqtisodiyot va uning afzalliklari, mehnatni muhofaza qilish sohasida raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zaruriyati va ahamiyati hamda afzalliklari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yo‘riqnomasi, model, modul, raqamli platforma.*

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ ВЕДУЩИХ СОТРУДНИКОВ И СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ОХРАНЕ ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Мурадов Сирожиддин Хусан угли

Стажер-преподаватель Каршинского инженерно-экономического института

sirojiddinmuradov0@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются правовые основы цифровизации производства и промышленности в Узбекистане сегодня, подготовка руководителей и специалистов в области охраны труда с помощью цифровых технологий. Анализируются цифровая экономика и ее преимущества, необходимость и важность и преимущества применения цифровых технологий в сфере охраны труда.

Ключевые слова: *цифровая экономика, цифровизация, охрана труда, техника безопасности, методология, модель, модуль, цифровая платформа.*

THE LEGAL BASIS FOR ASSESSING THE KNOWLEDGE OF LEADING EMPLOYEES AND SPECIALISTS IN LABOR PROTECTION IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES.

Muradov Sirojiddin

Intern-teacher of the Karshi Institute of Engineering and Economics

sirojiddinmuradov0@gmail.com

Abstract: The article analyzes the legal basis of digitization of production and industry in Uzbekistan today, training of managers and specialists in the field of labor protection with the help of digital technologies. The digital economy and its advantages, the necessity and importance and advantages of applying digital technologies in the field of labor protection are analyzed.

Keywords: *digital economy, digitization, labor protection, safety technique, guideline, model, module, digital platform.*

KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida turli iqtisodiy adabiyotlarda O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish hamda makroiqtisodiy muvozanatini ta'minlashning muhim jihati raqamli iqtisodiyot tizimiga o'tish deb qayd etilmoqda [1]. O'zbekiston yaqin kelajakda aholi turmush darajasini tubdan yaxshilab, dunyoning rivojlangan 50 mamlakati qatoriga kirishni maqsad qilgan. Bu boradagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan ham ijobiy baholanmoqda. Dunyodagi nufuzli nashrlardan biri - "Ekonomist" jurnali tomonidan O'zbekistonni 2019-yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat sifatida "Yil mamlakati" deb e'tirof etildi. Mamlakatimiz "Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi" reytingida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsada, umumiy reytingda hali ham juda ortda qolyapmiz [2].

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 17-moddasida Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi qo'yidagicha ko'rsatilgan:

"Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarning tayyorlanishi belgilangan tartibda ta'minlanadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha xususiyatlari hisobga olingan holda talabalar va o'quvchilar tomonidan mehnatni muhofaza qilish kursi majburiy o'rganilishini tashkil etishi kerak.

Hozirda ishlab chiqarishda xodimlarga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish va ularni o'qitish kurslari va yo'riqnomlardan o'tkazish tartibi o'flayn,

hechqanday innovatsiyon tizim yoki raqamli texnologiyalar orqali o'tkazilmaydi. Bu tizimni raqamlashtirish Respublika iqtisodiyotiga qanday ta'sir etishi, raqamlashtirish uchun qanday huquqiy asoslar mavjudligini o'rganish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda sanoat korxonalarida mehnat muhofazasini tashkil etish hamda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha o'qitish va xodimlar bilmini sinovdan o'tkazish masalalari Yuldoshev O'R., Yormatov G.Yo., Isamuxamedov Yo.U., Zokirova N.Q., Abduraxmonov Q.X., Irmatova A.B. Yunusov B.X. kabi olimlarning o'quv va ilmiy adabiyotlarida o'z aksini topgan [3].

MDH davlatlari korxonalarida mehnat muhofazasini raqamlashtirish masalalari bo'yicha Kovrigo O.V., Timofeev A.V., Ryabova V.Ye., Faynburg G.Z., Ivanov S.Yu., Kalagin I., Titov A., Shemelinin V., Porochkin D., Kuchumova G.V., Melyakova O.A., Shabunin K. Sarev V., Vesnin Ye., Soloveva A., Venediktova A. ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan [4].

Raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari xorijlik olim va mutaxassislardan M.A.Shneps-Shneppe, D.Ye. Namiot, P.Vinya, M.Keyn, N.Popper, Ye.Filippov, A. Fork, L.V. Lapidus, D.Bell, M.Kastels, V.Desouza, D.Makkonaz, M.Linch, S.Dirikan, S.Xalford, M.Savaj kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar M.A.Shneps-Shneppe va Namiot D.Ye. o'zining tadqiqotlarida qator Raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya - rivojlanishning asosiy bo'g'ini ekanligi va uning xususiyatlari to'g'risida nazariyalarini tadqiq etib o'tishgan. L.V. Lapidus o'z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar evolyusiyasi ta'siri ostida biznes modellarini o'zgartirish nuqtai nazaridan elektron biznes va elektron tijoratni boshqarish bo'yicha nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [3].

O'zbekistonlik olimlardan S.S.G'ulomov, R.H.Ayupov, G.R.Boltaboeva, T.Shodiev, T.Z. Teshabaev, Z.M. Otakuzieva, Sh.Mustafaqulov, R.S.Urunov, M.Yu.Jumaniyozova, Z.M.Qurbonov, U.M.Asraevlar ishlarida raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari bayon etilgan. Xususan, Sh.Mustafaqulov o'zining ilmiy izlanishlarida rivojlanishning yangi tendensiyalari va xususiyatlari atroflicha yoritilgan [5].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, umumlashtirish, ekspert so'rovi, raqamli texnologiyalar modellari, platformalar va dasturiy vositalardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, har bir yarim yilda informatsion oqim ikki barobarga oshib bormoqda. Jadal sur'atlarda rivojlanish sharoitida

raqamlashtirish zaruriyati yanada oshadi. Bu o‘z navbatida, juda ko‘p resurslarni talab qiladi. Shu bois hozirdan raqamli iqtisodiyotga o‘tish muhim vazifaga aylandi.

Raqamli iqtisodiyotning o‘zi nima? Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirishdir. Raqamli iqtisodiyot yordamida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning raqamli texnologiyalarini qo‘llash asosida amalga oshirish mumkin bo‘lgan tizimdir [2].

“Dastlab bu termini amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte 1995-yilda kiritgan bo‘lsa-da, u bugungi kunda barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Raqamli iqtisodiyot insonlarsiz boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish orqali korrupsiyani kamaytiradi, soliq tushumlarini “aqlli” shartnomalar tuzish orqali ko‘paytiradi, budjet xarajatlarining “shaffof”ligini oshiradi, yagona elektron platforma orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatini beradi” [3].

Raqamli iqtisodiyotning yangi konsepsiyasi inson faoliyati doirasidagi barcha informatsiyalarni raqamlashtirish texnologiyalarini qo‘llab saqlash, ishlov berish va uzatishning yagona tizimidir.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish xalqaro mehnat taqsimotiga tobora qo‘shilib, global iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ijodiy yondashib yangi iqtisodiyotni barpo etish imkoniyati tug‘iladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish kelajakda real raqobatbardoshlikni uzoq muddatga saqlab qolish imkoniyatidir.

“Iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasi Informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanish indeksi, Iqtisodiyot va jamiyatni yevropacha raqamlashtirish indeksi, Raqobatbardoshlikni xalqaro raqamlashtirish indeksi, Xalqaro evolyutsiya indeksi, Iqtisodiyotni raqamlashtirish indeksi, Aloqa tayyorlik indeksi, Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi, Elektron qatnashish indeksi, Global qo‘shilish indeksi kabi bir nechta xalqaro indekslar yordamida aniqlanadi. O‘zbekistonda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashining tashkil etilishi ham bejiz emas. Bu reytinglar bir-biridan farqi iqtisodiyotni raqamlashtirishda inobatga olinadigan mezonlardir. Qo‘yilgan maqsad va vazifaga ko‘ra, korxonalar, tarmoqlar, hududlar, milliy va global iqtisodiyot darajalari tanlanadi” [4].

Reytingni aniqlash mezonlari bir-biridan tubdan farq qilmaydi. Indeksni hisoblash metodikasi esa deyarli bir xil. Shuning uchun bir mezonni “yaxshilash”, masalan, aholini internet xizmati bilan qamrab olish darajasi barcha reyting indekslarini hisoblashda bir xil ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Misol uchun, informatsion kommunikatsiya texnologiyalari (IKT)ni rivojlantirish indeksini hisoblashda har 100 kishiga to‘g‘ri keladigan uy telefoni va uyali aloqa liniyalari, har bir internet foydalanuvchisiga to‘g‘ri keladigan xalqaro kanallarga chiqish imkoniyati, xonadonlar

kompyuter va internet bilan ta'minlanganlik, internetdan foydalanuvchilar va boshqa jihatlar hisoblab chiqiladi. Bunday indeksni mamlakat miqyosida, hududlar darajasida taqqoslash uchun ishlatish ham mumkin. Xulosa sifatida oladigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotni mamlakatimizning barcha sohalarida keng qo'llash iqtisodiyotning jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlab, pirovard natijada aholining turmush tarzini tubdan yaxshilashga olib keladi.

1-jadval

Xodimning kasbiy faoliyaining turli bosqichlarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinash uchun korporativ tizimning raqamli modeli¹

Kasbiy faoliyat bosqichlari		Biznes jarayonlar	Doimiy faoliyatdagi komissiya qarori
Ishga qabul qilish jarayoni		Kirish yo'riqnomasi	
		Ish joyidagi birlamchi yo'riqnoma	
		Mehnat muhofazasi va ishni xavfsiz olib borish metodlari hamda usullari bo'yicha o'qitish	
		Jarohatlanganda vrachgacha birinchi yordam ko'rsatish metodlari bo'yicha o'qitish	
Kasbiy faoliyat davridagi ish jarayoni	Takrorlanuvchi jarayonlar	Ish joyidagi qayta yo'riqnoma (reja bo'yicha)	
		Bilimlarni davriy sinovdan o'tkazish	
		Rejadan tashqari yo'riqnoma (yangi texnologiya, yangi texnikalar joriy etilganda, xodim faoliyatida 60 kundan ortiq uzilish bo'lganda va baxtsiz hodisalardan keyin)	
	Qo'shimcha bir martalik ishlar va naryad ruxsatnoma bo'yicha ishlar	Maqsadli yo'riqnoma o'tkazish	
		Ish joyidagi yo'riqnoma	

¹Dustkabilovich, Rakhimov Oktyabr. "Muradov Sirojiddin Husan o'g'li. Innovative Technologies in Teaching directors and Specialists of Industrial Enterprises on." *Labor Protection*. "European Journal of Life Safety and Stability (2021): 80-85.

	Boshqa ishga o'tkazish yoki ushbu ish turi bo'yicha boshqa bo'limga o'tkazish	Mehnat muhofazasi va ishni xavfsiz olib borish metodlari hamda usullari bo'yicha o'qitish	
--	--	---	--

Iqtisodiy taraqqiyotning bugungi bosqichida O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tizimga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish, kadrlarni tayyorlash va boshqa bir qancha muhim yo'nalishlarda keng qamrovli ishlarni bajarish, mamlakatimizda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim ishlar doirasidagi birlamchi vazifalar qatoriga olib chiqadi. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, unda mazkur tizimni taraqqiy ettirishga doir ko'plab qilinishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risidagi PQ-3832-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-6079-sonli qarorlariga binoan respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, yaqin istiqbolda barcha tarmoq va sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilganligini ko'rsatib o'tish mumkin [5].

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 17-moddasida Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi qo'yidagicha ko'rsatilgan:

"Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarning tayyorlanishi belgilangan tartibda ta'minlanadi.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha xususiyatlari hisobga olingan holda talabalar va o'quvchilar tomonidan mehnatni muhofaza qilish kursi majburiy o'rganilishini tashkil etishi kerak.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ish beruvchilar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar qayta tayyorlanishini va ularning malakasi oshirilishini ta'minlaydi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi" [9].


Shuningdek ushbu qonunning 25-moddasida “Xodimlarga mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berish va ularni o‘qitish” tartibi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu moddada ish beruvchi barcha yangi ishga kirayotgan, shuningdek boshqa ishga o‘tkazilayotgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berishi, ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullarini hamda baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatishga o‘qitishni tashkil etishi shartligi ko‘rsatilib, “Xavfliligi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarishga ishga kirayotgan yoki kasbiy tanlov talab etiladigan ishga kirayotgan xodimlar uchun ishlarni bajarishning xavfsiz uslublari va usullariga dastlabki tarzda tayyorlash, kasb bo‘yicha imtihonlar topshirgan holda bir oy mobaynida stajirovka va so‘ngra mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha davriy attestatsiya o‘tkaziladi” – deb ta’kidlangan [10].

Tashkilotlarning xodimlari, shu jumladan rahbarlari o‘z kasblari va ish turlari uchun mehnatni muhofaza qilishning davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda hamda muddatlarda mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘quvdan o‘tishi, yo‘l-yo‘riqlar olishi, bilimlari tekshirilishi va attestatsiyadan o‘tishi kerak.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan tartibda o‘quvdan o‘tmagan, yo‘l-yo‘riqlar olmagan va bilimlari tekshirilmagan shaxslarni ishga qo‘yish taqiqlanadi.

Yuqoridagilardan xulosalash mumkinki, xodimlarni mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘qitish va ularning bilimini belgilangan tartibda sinovdan o‘tkazish ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni oldini olishga qaratilgan tadbirlarning eng muhimi hisoblanadi, bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

Mehnat muhofazasini boshqarish, jumladan xodimlarni mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘qitish va bilimlarini sinovdan o‘tkazishni raqamlashtirish O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy bitta bo‘g‘ini hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O‘zbekiston uchun, uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan muhim, strategik ahamiyatga ega vazifa bo‘lib, bu davlatimizga ushbu sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib berish, bu jarayonni rag‘batlantirish zarurligini ko‘zda tutadi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarlicha, biroq rivojlanish bosqichi juda sekin bormoqda. Bunga sabab bo‘layotgan bir qancha omillar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiylari internet tezligi va sifatining pastligi, ko‘plab sohalarda monopoliyalarning mavjudligi, axborot texnologiyalari sohasidagi qonunchilikning zamondan ortda qolganligi, kompyuter savodxonligi darajasining pastligi, axborot texnologiyalari mutaxassislarining yetishmasligi, axborot texnologiyalari xavfsizligining yetarli darajada emasligidir [6].



1-rasm. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalarni modellashtirish²

Mehnatni muhofaza qilish zamonaviy ishlab chiqarish tarkibining bir uzluksiz qismi bo'lib, hozirgi Yangi O'zbekiston sharoitida ishchi-xodimlarning sog'ligini va ish qobiliyatini muhofaza qilish eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. "O'zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni va "O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi"ni yangi tahrirda qayta qabul qilinganligi fikrimiz isbotidir. Shuningdek menejmentning integratsiyalashgan tizimiga ham talablar o'zgarmoqda, unga xalqaro standartlarni tabiiq etgan holda boshqaruvning zamonaviy metodlari, ya'ni boshqarishda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish talablarini qo'ymoqda.

"Raqamli" davlatlar – ya'ni raqamli iqtisodiyot yuksak rivojlangan davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya hamda Gongkong raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlar 10 taligiga kiradi. Ushbu davlatlar tajribasini o'rganib chiqish va bular asosida harakatlanish ko'zlangan maqsadga tezroq erishishga yordam beradi [7,8].

XULOSA

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, unda mazkur tizimni taraqqiy ettirishga doir ko'plab qilinishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi

² Muallif tomonidan yaratilgan

Prezidentning 2018-yil 3-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3832-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-6079-sonli qarorlariga binoan respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, yaqin istiqbolda barcha tarmoq va sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mehnat muhofazasini raqamlashtirish deganda xavflarni ish jarayonida sezish va aniqlashda sun‘iy intellektlardan foydalanish, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha o‘qitishda VR –texnologiyalardan foydalanish tushuniladi. Lekin, mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarish tizimidagi asosiy va yuqori mehnat sarfiga ega jarayonlardan biri bu hujjat aylanish jarayoni hisoblanadi [11].

Shu sababli ushbu jarayonni elektron hujjat aylanish tizimiga o‘tkazish eng zamon talabi darajasidagi masala hisoblanadi va bu mehnat xavfsizligi madaniyatini oshiradi. Mehnat muhofazasida hujjatlar aylanishini raqamlashtirish qo‘yidagi ijobiy natijalarga olib keladi [12]:

1. Material xarajatlar kamayadi;
2. Vaqt tejaladi;
3. Ma’lumotlar elektron bazasini ishonchliligi;
4. Korxonada va kompaniya rahbarlari mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi holatini doimiy nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi;
5. Mehnat muhofazasiga oid, jumladan xodimlarni yo‘riqnomadan va bilimlarni sinovdan o‘tkazish ishlarida soxta hujjatlashtirish, odingi sanalar bilan rasmiylashtirish kabi qonunbuzarliklarga chek qo‘yiladi;
6. Ishchi-xodimlarni huquqlari to‘liq himoya etiladi;
7. Korxonada mehnatni muhofaza qilishni tashkil etish bo‘yicha hisobotlarni shaffofligi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тимофеев С. С., Тимофеева С. С. Цифровое будущее охраны труда // XXI век. Техносферная безопасность. 2022. Т. 7. № 1. С. 51–62. <https://doi.org/10.21285/2500-1582-2022-1-51-62>.

2. Цифровая трансформация охраны труда. URL:<https://journal.ecostandard.ru/ot/tech/tsifrovaya-transformatsiya-okhrany-truda/>

3. Цифровизация — важнейший тренд в сфере охраны труда. URL:<https://www.trudcontrol.ru/press/publications/30216/cifrovizaciya-vazhneyshiy-trend-v-sfere-ohrani-truda>

4. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich; Muradov Sirojiddin Husan o'g'li. Innovative Technologies in Teaching directors and Specialists of Industrial Enterprises on "Labor Protection" // European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 2021/12/29. 80-85.
5. O.D. Rakhimov, Muradov S.H. Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques. // European journal of life safety and stability (EJLSS). 2022. №24. P.80-86.
6. Тимофеев С. С., Тимофеева С. С. Цифровое будущее охраны труда // XXI век. Техносферная безопасность. 2022. Т. 7. № 1. С. 51–62. <https://doi.org/10.21285/2500-1582-2022-1-51-62>.
7. Muradov Sirojiddin Husan o'g'li, Hakimov Xurshid Hamidulla o'g'li, & Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. (2021). NEW INNOVATIVE ENGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 2, 28-30. Retrieved from <http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/13>
8. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – С. 301-308.
9. СИРОЖИДДИН М. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ БЕЗОПАСНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ГРУЗОПОДЪЕМНЫХ КРАНОВ В СТРОИТЕЛЬНО-МОНТАЖНЫХ РАБОТАХ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 167-177.
10. Muradov S. CONSTRUCTION-INSTALLATION ISHLARIDA KUTARAMA KRANLARDAN USE FUNDAMENTAL SECURITY OF SUPPLY //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 786-792.
11. Muradov, S. (2024). ASSESSMENT OF THE CHEMICAL SITUATION IN AN ACCIDENT IN FACILITIES USING KTZM. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 1142–1152. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10701651>
12. Muradov S., Usmonov H. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING RIVOJLANISH TARIXIY BOSQICHLARINI O 'RGANISH //Interpretation and researches. – 2024.